

JINOYAT PROTSESSIDA SHAXSIY KAFILLIK VA JAMOAT BIRLASHMASI YOKI
JAMOANING KAFILLIGI EHTIYOT CHORALARINING O'RNI VA O'ZIGA XOS
JIHATLARI.

Sattorov Davlat G'ayratovich,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasi
“Tergov faoliyati” yo‘nalishi tinglovchisi.

E-mail: d.g.sattorov@gmail.com

Tel: (93) 141-71-17

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11305843>

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat protsessida ehtiyot choralarini qo'llashning maqsadi, vaziflari va o'ziga xos xususiyatlari, shaxsiy kafillik va jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi ehtiyot choralarini tartibga soluvchi normalar va ularni qo'llash amaliyotining tahlili, kafillik bilan bog'liq ehtiyot choralarinini qo'llash bo'yicha ayrim xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi, shuningdek, ushbu turdag'i ehtiyot choralarini qo'llash jarayonida vujudga keladigan ayrim muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyat protsessi, tergov, ehtiyot choralar, shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi, huquq va erkinliklarni cheklash, majburiyat yuklash.

THE ROLE AND SPECIAL ASPECTS OF PRECAUTIONS OF INDIVIDUAL
GUARANTEE AND COMMUNITY OR COMMUNITY GUARANTEE IN CRIMINAL
PROCEEDINGS.

Abstract. In this article, the purpose, duties and specific features of the use of precautionary measures in criminal proceedings, the norms regulating the precautionary measures of personal surety and public association or collective surety and the analysis of their application practice, the advanced experience of some foreign countries in the use of precautionary measures related to surety, as well as this a number of suggestions on how to eliminate some problems and shortcomings that arise in the process of applying precautionary measures.

Key words: Criminal proceedings, investigation, precautionary measures, personal guarantee, public association or group guarantee, restriction of rights and freedoms, imposition of obligations.

РОЛЬ И ОСОБЕННОСТИ МЕР ПРЕДОСТОРОЖНОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ И
ОБЩЕСТВЕННОЙ ИЛИ ОБЩЕСТВЕННОЙ ГАРАНТИИ В УГОЛОВНОМ
ПРОИЗВОДСТВЕ.

Аннотация. В данной статье рассматриваются цель, обязанности и особенности применения мер пресечения в уголовном судопроизводстве, нормы, регулирующие меры пресечения личного поручительства и общественного объединения или коллективного поручительства, а также анализ практики их применения, передовой опыт некоторых зарубежных стран в применении мер пресечения, связанных с поручительством, а также представлен ряд предложений по устранению некоторых проблем и недостатков, возникающих в процессе применения их.

Ключевые слова: Уголовное производство, расследование, меры пресечения, личное поручительство, поручительство общественного объединения или группы, ограничение прав и свобод, возложение обязанностей.

Kirish. Bugun yurtimiz demokratik tamoyillar, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan prinsip va normalarga asoslangan, bosh maqsadi xalq uchun erkin, obod hamda farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatga aylandi. Inson qadri ulug'lanadigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida keng qamrovli yangilanishlar va islohotlar amalga oshirildi, bu borada boy tajriba to'plandi.

O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yib, adolatli va xalqparvar davlat barpo etish yo'lida dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni to'laqonli amalga oshirish maqsadida ko'lamiga monand va munosib bo'lgan yangi mustahkam konstitutsiyaviy makonni shakllantirdi.

Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga og'ishmay rioya etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholining farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitusiyamizning 27-moddasida "Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas" deb belgilangan. [1]

Shu o'rnila, jinoyat protsessida protsessual majburlov choralarining tarkibiga kiruvchi shaxsiy kafillik va jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi ehtiyyot choralarining mazmuni, qo'llanilish asoslari va o'ziga xos jihatlarini tahlil qilib ko'ramiz.

Amaldagi jinoyat protsessual qonunchiligidan "ehtiyyot choralar"ga alohida ta'rif berilmagan bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 236-moddasida "Ehtiyyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tovleshining oldini olish; uning bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish; uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik; hukmnинг ijro etilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi" [2] deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat – protsessual kodeksida quyidagi ehtiyyot choralarinig turlari ushbu moddalarida o'z aksini topgan:

- 1) qamoqqa olish JPK ning 242-moddasasi;
- 2) uy qamog'i JPK ning 242¹-moddasasi;
- 3) garov JPK ning 249-moddasasi;
- 4) munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxat JPK ning 250-moddasasi;
- 5) shaxsiy kafillik JPK ning 251-moddasasi;
- 6) jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi JPK ning 252-moddasasi;
- 7) voyaga etmaganlarni kuzatuv ostiga olishi uchun topshirish JPK ning 253-moddasasi;
- 8) harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo'mondonlik kuzatuvi JPK ning 254-moddasasi.

JPKning 251-moddasida “Shaxsiy kafillik ishonchga sazovor bo‘lgan shaxslarning ayblanuvchi, sudlanuvchi munosib xulq-atvorda bo‘lishiga kafil ekanliklari haqida yozma majburiyat olishidan iboratdir. Kafillar sonini surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud belgilaydi. Alovida hollarda yuksak ishonchga sazovor bo‘lgan bitta shaxs ham kafil bo‘lishi mumkin. Kafillar ushbu ehtiyot chorasi qo‘llanilishiga sabab bo‘lgan ayblovning mohiyati, ayblanuvchiga qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo, oldini olish maqsadida kafillik tariqasidagi ehtiyot chorasi ko‘rilgan harakat ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan sodir etilgan taqdirda kafillarning javobgarligi haqida ogohlantirilishi lozim.

Bu ma’lumotlar kafillikka berish bayonnomasida qayd qilinib, uni shu ehtiyot chorasini qo‘llayotgan mansabdor shaxs, ayblanuvchi, sudlanuvchi va kafillar imzolashi lozim yoki bu ma’lumotlar sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi. Bundan tashqari, har bir kafillikka oluvchi kafillik to‘g‘risida tilxat beradi. Kafillar ularni javobgarlikka tortish uchun sabab bo‘ladigan asoslar kelib chiqqunga qadar o‘z zimmalariga olingan majburiyatlardan voz kechishlari mumkin.

Kafillar ayblanuvchining, sudlanuvchining xulq-atvorini kuzatishga imkon bo‘limganligini bahona qilishga haqli emaslar, ular bartaraf etib bo‘lmaydigan vaziyatning ta’sirini isbotlab beradigan hollar bundan mustasno. Ayblanuvchi, sudlanuvchi oldi olinishi uchun shaxsiy kafillik qo‘llanilgan harakatlarni sodir etgan taqdirda, kafil qonunda belgilangan javobgarlikka tortilishi mumkin.” [2] deb ko‘rsatilgan.

JPKning 252-moddasida esa “Jamoat birlashmasi yoki jamoa ishda ayblanuvchi, sudlanuvchi tariqasida ishtirot etishga jalb qilingan shaxsni kafillikka olish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqlidir. Jamoat birlashmasi yoki jamoa o‘z qarorini ayblanuvchining, sudlanuvchining munosib xulq-atvorda bo‘lishiga kafil ekanligi to‘g‘risidagi yozma majburiyat tarzida bayon qiladi. Bu majburiyat surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga taqdim qilinadi, ular jamoat birlashmasi yoki jamoaning qaroriga rozi bo‘lsalar, shunday ehtiyot chorasini tanlab, bu haqda qaror yoki ajrim chiqaradilar. Ayni vaqtida jamoat birlashmasi yoki jamoa vakiliga ushbu ehtiyot chorasi qo‘llanilishiga sabab bo‘lgan ayblovning mohiyati, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga esa, basharti xulq-atvori nomunosib bo‘lsa, ehtiyot chorasi jiddiyrog‘i bilan almashtirilishi mumkinligi tushuntirilgani to‘g‘risida bayonnomalari tuziladi. Ayblanuvchi, sudlanuvchi boshqa ishga o‘tgan yoxud istiqomat joyini o‘zgartirgan taqdirda jamoat birlashmasi yoki jamoa bu haqda ehtiyot chorasini tanlagan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga darhol xabar berishi shart.

Bunday hollarda jamoa kafilligi bekor qilinadi va boshqa ehtiyot chorasi bilan almashtirilishi mumkin. Ayblanuvchining, sudlanuvchining xulq-atvori nomunosib bo‘lgan taqdirda jamoat birlashmasi yoki jamoa kafillikdan voz kechishga haqlidir.” [2] deb ko‘rsatilgan.

Dastlabki tergov va sud amaliyotida kafillik bilan bog‘liq ehtiyot choralarini kamdan-kam holatlarda qo‘llanilmoqda. Bunga sabab, ushbu turdagidan ehtiyot choralarining ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga ta’sir etish kuchining yetarli darajada emasligi, ushbu turdagidan ehtiyot choralarini qo‘llanilgan ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga biror-bir majburiyat qonuniy asoslarda yuklanmasdan, uning nomunosib xulq-atvori natijasida kafillik majburiyatini olgan shaxs(lar)ga javobgarlikni nazarda tutadi.

E’tiborli jihatlaridan biri jamoat birlashmasi yoki jamoa kafilligi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan ayblanuvchi yoki sudlanuvchi xulq-atvori nomunosib bo‘lsa, faqatgina ehtiyot chorasi jiddiyrog‘i bilan almashtirilishi mumkinligi belgilangan. Shu o‘rinda 2 ta muhim savol tug‘iladi:

1) Agar shaxsiy kafillik tariqasidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan nomunosib xatti-harakatlar sodir etilgan taqdirda, kafillarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi MjtKning 208-moddasida ko'rsatilgan mamuriy huqubzunarlik doirasida chegaralanadimi?

2) Nima sababdan ayblanuvchi yoki sudlanuvchini shaxsiy kafillikka olgan shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin, lekin jamoat birlashmasi yoki jamoa uchun bunday shartlar belgilanmagan?

Vaholanki, barcha turdag'i ehtiyot choralarining vazifasi ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tovlashining oldini olish, uning bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish, uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik va hukmning ijro etilishini ta'minlash hisoblanadi.

Rus olimlari A.Smirnov va K.Kalinovskiy larning fikriga ko'ra "shaxsiy kafil jamiyatning, shuningdek, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning ishonchini qozongan, barqaror ijtimoiy mavqe, hurmat, obro'-e'tiborga ega, o'tmishda hech qanday huqubzunarlikka aloqasi bolmagan ayblanuvchi (sudlanuvchi) bilan yaqin munosabatlardagi shaxs bo'lishi lozim" [3] deb ta'kidlaganlar.

Boshqa bir rus olimasi O.Kopilova esa "Kafil zimmasisiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun halollik, qonunga itoatkorlik, ayblanuvchiga ta'sir qilish va ma'lum ta'sir ko'rsatish qobiliyati kabi fazilatlarga ega bolishi kerak" [4] deb yozadi.

Ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borgan G.To'laganova "kafillik bilan bog'liq ehtiyot choralarini jinoyat sudlov ishlarini demokratlashtirish majburlash doirasini toraytirish, ijtimoiy hayotning axloqiy negizlarini takomillashtirish, davlat va shaxs o'rta sidagi munosabatlarda ishonchga suyanish bilan chambarchas bog'langan, u shaxs va davlatning qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi" [5] degan.

Fikrimizcha, kafillik bilan bog'liq ehtiyot choralarining jinoyat-protsessual qonunchiligidan mavjud bo'lishi to'g'ri. Chunki, ushbu turdag'i ehtiyot choralarini erkinliklarini minimal miqdorda cheklab, unga ongli ravishda ta'sir o'tkaza oladigan kafilning imkoniyatlaridan foydalangan holda, uni surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tovlamaslikka, jinoiy faoliyatni davom ettirmaslikka, ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlar qilmaslikka unday olishi bilan ahamiyatlidir.

Qonun chiqaruvchi shaxsiy kafillik ehtiyot chorasi qo'llashning asosiy sharti etib "ishonchga sazovor bo'lgan" shaxs yoki shaxslarning yozma majburiyat berishini nazarda tutadi.

Biroq, shaxsni "ishonchga sazovor" deb topish uchun uning aynan qaysi jihatlari e'tiborga olinishi lozimligi bo'yicha aniq huquqiy asoslar ochiq qoldirilgan.

Ko'rinish turibdiki, kafil, bir tomon dan, ushbu ehtiyot chorasi qo'llash vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslarning ishonchiga sazovor bo'lishi kerak, ikkinchi tomon dan, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bilan alohida ishonchli munosabatlarda bo'lishi kerak. Mantiqan, ishonchga sazovor shaxs ayblanuvchi yoki sudlanuvchining roziligi bilan uning shaxsiy kafili bo'lishi kerak.

Biroq, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligidan ayblanuvchi, sudlanuvchi va shaxsiy kafil bir-birini tanishi kerak degan talablar mavjud emas. Kodeksning ushbu qismi ehtiyot chorasi qo'llash vakolati bolgan organning ishonchiga sazovor bo'lgan har qanday shaxs ayblanuvchi, sudlanuvchiga shaxsiy kafolat berishi mumkinligiga ruxsat etadi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning potensial kafilga bo'lgan ishonchiga kelsak, ushbu ishonch shaxsiy kafil sifatida ko'rsatilayotgan nomzod to'g'risidagi ma'lumotlarni dastlabki tahlil qilish asosida shakllantirilishi mumkin.

Shaxsiy kafilning ishonchga sazovor bo'lishining sharti u haqidagi malumotlardan tashqari, uning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy mavqeい, mehnat faoliyati va boshqalar kirishi mumkin.

Fikrimizcha, shaxsiy kafil o'z vazifasini bajara olishiga va ayblanuvchi, sudlanuvchini nomunosib harakatlardan to'xtata olishiga qodir ekanligiga ishonch hosil qilish quyidagilardan:

- 1) Voyaga yetgan, aqli raso shaxs bo'lishi;
- 2) Sudlanganlik holatining mavjud emasligi;
- 3) Zararli qaramliklaning yo'qligi (alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar);
- 4) Davlat yoki jamiyat uchun xizmat qiladigan sohalarda rahbarlik lavozimini egallashi yoki ushbu sohalarda faoliyat olib borishi;
- 5) Faxriy unvonlar, davlat mukofotlari yoki jamoaning obro'-e'tiboriga sazovor bo'lishi va boshqalardan kelib chiqib belgilanishi mumkin.

Shaxsiy kafil ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan alohida ishonchli munosabatlarda bo'lishining mezonlari asosida:

- 1) Ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan oilaviy yoki boshqa ijtimoiy aloqalarining bo'lishi - masalan, uning otasi, amakisi, qaynotasi, qo'shnisi va vokazo;
- 2) Shaxsiy kafil ayblanuvchi, sudlanuvchiga nisbatan mehnat yoki hokimiyatga asoslangan boshqa munosabatlarda rahbarlik lavozimida bo'lishi - xususan, ayblanuvchi, sudlanuvchining ish beruvchisi yoki u ishlayotgan bo'lim boshlig'i, oliv ta'lim muassasasining o'qituvchisi va hokazolar kafil bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, qonun chiqaruvchi "oldini olish maqsadida kafillik tariqasidagi ehtiyoj chorasi ko'rilgan harakat"lar jumlasiga aniq to'xtalmaganligini, bu esa normaning turli shaklda talqin qilinishiga sababchi bolishi mumkin.

Masalan, G.To'laganova va A.Abdullayevlarning fikricha "kafillikning barcha ko'rinishlarida, agar kafillikdagi shaxs o'zi tomonidan berilgan va'dalarni bajarmasa, intizomni buzsa, spirtli ichimliklarni iste'mol qilsa va hokazo hollarda kafil undan voz kechish huquqiga egadir. Shu tariqa kafillikdan voz kechish uchun asoslar axloqiy tusda bo'lishi mumkin". [5] [6]

Biz ushbu fikrga qo'shilmagan holda, ushbu holatni boshqa rakursdan sharhlashga urinib koramiz: kafillik bilan bog'liq ehtiyoj chorasi ayblanuvchi (sudlanuvchi)ga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan u surishtiruvdan, dastlabki tergov va suddan bo'yin tovlamasligi, jinoiy faoliyatini davom ettirmasligi, ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga halal bermasligi maqsadida, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ga munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxat ehtiyoj chorasini qollash uchun yetarli darajada ishonmagan vaqtarda, alternativ ehtiyoj chorasi sifatida qo'llaniladi. Ushbu jarayonlarda ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning kafil yoki vakolatli organga u yoki bu harakatlarni sodir etmasligi to'g'risida va'da berishi, birinchidan mazkur ehtiyoj chora mazmunini o'zgartirib qo'yadi, ikkinchidan ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning ayrim huquqlarini qonuniy asoslarsiz cheklanishiga olib keladi.

Masalan, jinoyat-protsessual qonunchilik ushbu ehtiyoj choraning normasida shaxsning biror-bir mahsulotni yoki ichimlikni, xususan, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish taqiqlashni nazarda tutmagan. Yoki ayblanuvchi (sudlanuvchi) biror-bir tashkilotda ishlasa, ma'lum

sabablarga ko‘ra ishga kech qolishi, uning intizom buzishi hisoblanadi. Shunday ekan, kafilning shu asoslarda o‘z kafilligidan voz kechishi noto‘g‘ri.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “oldini olish maqsadida kafillik tariqasidagi ehtiyot chorasi ko‘rilgan harakat”lar amaldagi qonunchilikda kafillik bilan bog‘liq ehtiyot choralarini qo‘llanilishidan oldin kafilga ayblanuvchining (sudlanuvchi) tergov va suddan yashirinmasligini, jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlashga to‘sinqlik qilmasligini, jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanmasligini, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruvi bilan yetib kelishini, ularning ijozatisiz o‘zi istiqomat qilayotgan aholi punktidan uzoq muddatga ketmasligi, shu aholi punkti doirasida o‘z istiqomat joyini o‘zgartirsa, bu haqida ehtiyot chorasi qo‘llagan organni xabardor qilishini, O‘zbekiston Respublikasi hududini tark etmasligini taminlash hamda ushbu cheklovlar ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan buzilayotganligi haqida vakolatli organga xabar berishi shartligi to‘g‘risidagi majburiyatlar norma doirasida aniq belgilash lozim.

Shaxsiy kafillik ehtiyot chorasi Rossiya, Moldova, Turkmaniston, Ozarbayjon qonunchiligidagi turli xil bayon etilgan bo‘lsa-da, mazmunan bir maqsadni ko‘zlashini tushunish qiyin emas. Xususan, MDH davlatlari jinoyat-protsessida ushbu ehtiyot chorasi kaffillar tomonidan ayblanuvchining muayyan xulq-atvor qoidalariiga rioya qilishi to‘g‘risidagi yozma majburiyatni berishiga asoslanadi. Ukrainianada ayblanuvchi yoki sudlanuvchini dastlabki tergov yoki sud organiga yetib kelishini taminlashni, Belarus va Tojikiston qonunchiligiga binoan ayblanuvchi uchun bunday xatti-harakatlar qoidalari tergov va suddan yashirmslik, ishni sudda tergov qilish yoki ko‘rib chiqishga aralashmaslik, jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanmaslikni nazarda tutadi.

Rossiya, Qozog’iston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Moldova qonunchiligidagi ehtiyot chorasi qo‘llagan organ tomonidan chaqirilganda, o‘z vaqtida kelish majburiyati, Qirg’izistonda esa tergovchi, prokuror va sudning ruxsatsiz yashash joyini tark etmaslik majburiyati hamda Ozarbayjonda jamoat tartibiga va normalariga rioya etish majburiyatlar ko‘rsatilgan.

Biroq, xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligidagi jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi ehtiyot chorasi deyarli uchramaydi.

Bunga sabab, ushbu ehtiyot chorasi shaxsiy kafillik ehtiyot chorasi mantigan takrorlaydi.

Shunga qaramay, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi ayblanuvchi, sudlanuvchining xatti-haraktlarini nazorat qiluvchi subyekt to‘g‘risidagi ma‘lumotni abstrakt holatda qoldiradi. Ya‘ni, ushbu ehtiyot chorasi qo‘llanilgan taqdirda, ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan nomunosib harakatlar sodir etmasligiga jamoat birlashmasi yoki jamoaning barcha a‘zolari mas’ul bo‘ladimi? Yoxud ular tomonidan belgilangan vakil(lar) mas’ul bo‘ladimi?

O‘ylashimizcha, ushbu joyda konkretlilik mavjud bo‘lmaganligi sababli, qonun chiqaruvchi ayblanuvchi yoki sudlanuvchini kafillikka olgan jamoat birlashmasi yoki jamoaga nisbatan javobgarlikni nazarda tutmasdan, aybnuvchi, sudlanuvchi tomonidan ehtiyot chorasi talablari buzilgan taqdirda, faqatgina ehtiyot chorasi jiddiyrog‘iga almashtirilishi bilan kifoyalanadi.

Bir tomonidan qaraganda, 2 yoki undan ortiq shaxslarga jamoa sifatida qarashimiz mumkin, shaxsiy kafillik bilan bog‘liq normaning o‘zi kaffillar sonini 2 yoki undan ortiq bo‘lishiga ruxsat etadi. Bu esa, ushbu ehtiyot choralarini mazmunan bir-birini takrorlashini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shaxsiy kafillik va jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi ehtiyot choralarini umumlashtirib, kafillik ehtiyot chorasi sifatida bayon etishni, uning

asos va shartlarini, kafil (lar) va ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning majburiyatlarini, javobgarlik masalalarini va cheklolvar doirasini aniq belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bundan tashqari, o‘ziga nisbatan kafillik bilan bog‘liq ehtiyot chorasi qo‘llanilgan ayblanuvchi yoki sudlanuvchining O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqishiga taqiq qo‘yilishi, aynan shu modda doirasida tartibga solinmagan. Vaholanki, ushbu ehtiyot chorasingning maqsadlaridan biri ayblanuvchi yoki sudlanuvchining tergov va suddan yashirinmasligini ko‘zda tutadi.

Shu sababli, kafillik ehtiyot chorasingning qo‘llanillishi boshqa ehtiyot choralarini kabi shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqishiga ma‘lum muddatga cheklov o‘rnatishga huquqiy asos bo‘lishini belgilash lozim.

Shuningdek, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda kafillik bilan bog‘liq ehtiyot chorasingning muddati aniq belgilanmagan. Agar JPK ning 351-moddasida ko‘rsatilgan dastlabki tergovning muddatlari yoki 381⁷-moddasida nazarda tutilgan surishtiruv yuritish muddatlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, ushbu ehtiyot chorasingning turli muddatlarda qo‘llanilishiga ham, turli muddatlarda qo‘llanilishining biror bir aniq asosga ega emasligiga ham guvoh bo‘lamiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, JPK ning 251-moddasini quyidagi tahrirda bayon qilishni taklif qilamiz:

“251-modda. Kafillik.

Kafillik ayblanuvchi (sudlanuvchi) bilan ijtimoiy aloqalarga ega ishonchga sazovor shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan ayblanuvchi (sudlanuvchi)ni tergov va suddan yashirinmasligini, jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlashga to‘sinqlik qilmasligini, jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanmasligini, yashash uyi yoki manzilini uzoq muddatga tark etmasligini, istiqomat joyini o‘zgartirsa, bu haqida ehtiyot chorasi qo‘llagan mansabdor shaxsni xabardor qilishini, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqmasligini, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruvi bilan yetib kelishini ta‘minlashi boyicha bergen yozma majburiyati.

Kafillar soni bir nafar yoki undan ortiq bolishi mumkin.

Kafillar ularni javobgarlikka tortish uchun sabab bo‘ladigan asoslar kelib chiqqunga qadar, o‘z zimmalariga olgan majburiyatlaridan voz kechishlari mumkin. Kafillarning o‘z zimmalariga olgan majburiyatlaridan voz kechishlari ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan uy qamog‘i yoki qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilishiga asos bo‘lmaydi.

Kafillar ayblanuvchining, sudlanuvchining xulq-atvorini kuzatishga imkonib o‘limganligini bahona qilishga haqli emaslar, ular bartaraf etib bo‘lmaydigan vaziyatning ta’sirini isbotlab beradigan hollar bundan mustasno.

Ayblanuvchi, sudlanuvchi oldi olinishi uchun shaxsiy kafillik qo‘llanilgan harakatlarni sodir etgan taqdirda, kafil qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar. Ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan uy qamog‘i yoki qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilishiga asos bo‘ladi”.

252-modda. Kafillik ehtiyot chorasi qo‘llash tartibi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror kafillika berish togrisida qaror, sud esa ajrim chiqaradi.

Qaror yoki ajrimda ayblanuvchi yoki sudlanuvchini kafillika berish sababi, kafilning ma‘lumotlari, unga yuklatilayotgan majburiyatlar, ehtiyot chorasingning amal qilish muddati

korsatiladi. Qaror yoki ajrim nusxasi ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga, shuningdek kafilga taqdim etiladi.

Kafil(lar) ushbu ehtiyot chorasi qo'llanilishiga sabab bo'lgan ayblovning mohiyati, ayblanuvchiga qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo, ushbu Kodeksning 251-moddasi 1-qismida korsatilgan talablar ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan sodir etilishiga yo'l qo'ygan taqdirda kafil(lar)ning javobgarligi haqida ogohlantirilishi lozim.

Bu ma'lumotlar kafillikka berish bayonnomasida qayd qilinib, uni shu ehtiyot chorasini qo'llayotgan mansabdor shaxs, ayblanuvchi, sudlanuvchi va kafillar imzolashadi yoki bu ma'lumotlar sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi. Bayonnomma yoki ajrimda aniq ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, har bir kafillikka oluvchi kafillik to'g'risida tilxat beradi.

Kafil o'z vazifasini bajara olishiga va ayblanuvchi, sudlanuvchini nomunosib harakatlardan to'xtata olishiga qodir ekanligiga ishonch hosil qilish quyidagilardan:

- 1) Voyaga yetgan, aqli raso shaxs bo'lishi;
- 2) Sudlanganlik holatining mavjud emasligi;
- 3) Zararli qaramliklaning yo'qligi (alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar);
- 4) Davlat yoki jamiyat uchun xizmat qiladigan sohalarda rahbarlik lavozimini egallashi yoki ushbu sohalarda faoliyat olib borishi;
- 5) Faxriy unvonlar, davlat mukofotlari yoki jamoaning obro'-e'tiboriga sazovor bo'lishi va boshqalardan kelib chiqib belgilanishi mumkin.

Shaxsiy kafil ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan alohida ishonchli munosabatlarda bo'lishining mezonlari asosida:

- 1) Ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan oilaviy yoki boshqa ijtimoiy aloqalarining bo'lishi;
- 2) Shaxsiy kafil ayblanuvchi, sudlanuvchiga nisbatan mehnat yoki hokimiyatga asoslangan boshqa munosabatlarda bir pogona yuqoriq lavozimida bo'lishi lozim.

Kafillik ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga faqat jinoyat ishining umumiyligi muddatlaridan kelib chiqqan holda qo'llaniladi.

Kafillik ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida qaror qabul qilgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud qaror yoki ajrim nusxasini zudlik bilan O'zbekiston Respublikasi davlat chegara xizmati organlariga yuboradi. Ushbu qaror yoki ajrim nusxasi shaxsning O'zbekiston Respublikasi hududidan chetga chiqishiga ehtiyot chorasi qo'llanilgan muddat doirasida cheklov o'rnatishga asos bo'ladi".

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. <https://lex.uz/docs/6445145#6446164>
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111460>
3. Смирнов А.В., Калиновский К.Б. Уголовный процесс: учебник / под общ. ред. А.В. Смирнова. 4-е изд., перераб. и доп. М.: КНОРУС, 2008.– 704 с.
4. Копылова О.Ю. Уголовный процесс: В 2 ч. Ч. 2. Особенная часть уголовного процесса: Курс лекций. Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та. 2005. С. 35 – 39

5. Г.Тўлаганова. Жиноят процессида эҳтиёт чораларининг қўлланиши муаммолари (Ўқув қўлланма) Масъул мухаррир F.A.Абдумажидов Ўзбекистон Республикаси фан арбоби юридик фанлари доктори профессор. Т. ТДЮИ, 2007 (33 б)
6. А.Абдуллаев, Г.Султонова. Суриштирув ёки дастлабки терговда жамоат бирлашмаси ёки жамоа кафиллигининг процессуал жиҳатлари.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7882358>